



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№9

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 197 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayeich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri	14
Abdulaziz Madjidov	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli	22
Imamova Nilufar Asamutdinovna	
Korxona raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
Xidirov Sherzod Olimovich	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari	34
Irgashev Anvar Farxodovich	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi	39
Umarov Bexzod Batirovich	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
Sheraliev Axror Sodiqovich	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlarini	48
Roziqov Behzod Bahrom o'g'li	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi	54
Abdullayeva Matluba Nematovna	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане	59
Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari	68
Abdug'aniyev Otabek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari	75
Mambetjanov Qahramon Qurbandurdiyevich, Isroilova Muhabbat Rustamjon qizi	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari	89
Xaitov Shuxrat Sharipboyevich	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida	98
Narziyev Umidjon Baxrillayevich	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
Marufhanov Davron Xasanovich	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
Кушакова Мамура Наримановна	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний	115
Шарапова Гулчехра Рустамовна	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari	120
Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili	135
Jaloliddinova Mohira Alisher qizi	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макрэкономической политики в Узбекистане	142
Хазраткулова Лола Нармуминовна	
Intellectual mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi	148
N.D.Maxmudova	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari	152
Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
Умарова Зулайхо Турсуновна	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili	166
Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari	172
Usmonov Adxamjon A'zamjonovich	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalar investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
Soliyev Istam Ixtiyorovich	



FOND BOZORIDA SAVDO STRATEGIYASI VA UNI AMALGA OSHIRISHGA YO'NALISHLARI

Soliyev Istam Ixtiyorovich

Bank-moliya akademiyasi magistratura bosqichi tinglovchisi,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi
Ijtimoiy himoya milliy agentligi Navoiy viloyat boshqarmasi
Navbahor tumani "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi
Ijtimoiy to'lovlar sho'bası mudiri
E-mail: soliyevistam8814@gmail.com
ORCID: 0009-0003-3444-0960

Annotatsiya: Ushbu maqolada fond bozorida savdo strategiyalarining nazariy va amaliy asoslari, ularning bozor mikrostrukturasi, likvidlik, tranzaksiya xarajatlari, risk boshqaruvi va tartibga solish muhitiga bog'liqligi tahlil qilinadi. Tadqiqotda momentum, o'rtachaga qaytish, faktor-investitsiya (qiymat, o'sish, hajm, sifat), aralash portfel va algoritmik/arbitraj yondashuvlari solishtirilib, institutsional rivojlanish sharoitida ularni joriy etish bosqichlari belgilangan. Ishda yirik va chakana investorlar xulqi, ma'lumot assimetriyasi hamda narx kashfiyotining roli muhokama qilinib, milliy bozor infratuzilmasi, ma'lumotlar ochiqligi, kliring-hisob-kitob, market-meykerlik va investorlarga mo'ljallangan ta'lim dasturlari bilan uzviy bog'liqligi yoritiladi. Xalqaro tajriba va klassik tadqiqotlar (EMH, anomalialar, faktor modellari) asosida mahalliy sharoitga mos implementatsiya yo'nalishlari hamda bosqichma-bosqich "yo'l xaritasi" taklif etiladi.

Kalit so'zlar: fond bozori, savdo strategiyasi, momentum, o'rtachaga qaytish, faktor-investitsiya, likvidlik, tranzaksiya xarajatlari, risk boshqaruvi, algoritmik savdo, tartibga solish.

Abstract: This article examines the theoretical and practical foundations of stock-market trading strategies through the lenses of market microstructure, liquidity, transaction costs, risk management, and regulation. We compare momentum, mean-reversion, factor investing (value, growth, size, quality), mixed-portfolio and algorithmic/arbitrage approaches, and outline staged implementation under conditions of institutional development. Investor behavior, information asymmetry, and price discovery are discussed alongside market infrastructure, data transparency, clearing/settlement, and market-making. Building on canonical research (EMH, return anomalies, factor models) and international best practices, the paper proposes locally adaptable implementation directions and a step-by-step roadmap.

Key words: stock market, trading strategy, momentum, mean reversion, factor investing, liquidity, transaction costs, risk management, algorithmic trading, regulation.

Аннотация: В статье анализируются теоретические и прикладные основы торговых стратегий на фондовом рынке с учётом рыночной микроструктуры, ликвидности, транзакционных издержек, управления рисками и регуляторной среды. Рассматриваются и сравниваются стратегии импульса (momentum), возврата к среднему, факторного инвестирования (value, growth, size, quality), смешанные портфели и алгоритмические/арбитражные подходы; определяются этапы их внедрения в условиях институционального развития. Обсуждаются поведение инвесторов, асимметрия информации и роль ценового открытия, а также взаимосвязь с инфраструктурой рынка, раскрытием данных, клирингом и функцией маркет-мейкеров. На основе классических исследований (ЕМН, рыночные аномалии, факторные модели) и международной практики предлагаются направления реализации и поэтапная "дорожная карта" для локального рынка.

Ключевые слова: фондовый рынок, торговые стратегии, импульс, возврат к среднему, факторное инвестирование, ликвидность, транзакционные издержки, управление рисками, алгоритмическая торговля, регулирование.



KIRISH

Bozor iqtisodiyotida kapital bozorlarining chuqurligi, likvidligi va institutsional yetukligi real sektorning moliyaviy barqarorligi hamda innovatsion o'sishi uchun hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Fond bozori aynan shu moliyalashtirish zanjirining markaziy bo'g'ini bo'lib, narx kashfiyoti, resurslarni samarali taqsimlash va risklarni diversifikatsiya qilish funksiyalarini bajaradi. O'zbekistonda so'nggi yillarda kapital bozorini modernizatsiya qilish, xususan birja savdolarini raqamlashtirish, kliring–hisob-kitob infratuzilmasini takomillashtirish, chakana investorlar qatnashuvini kengaytirish hamda davlat aktivlarini bosqichma-bosqich ommaviy joylashtirish orqali xususiylashtirish jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

2024-yilda iqtisodiy o'sish 6,5 % ni tashkil etib, makrofundamentlarni mustahkamladi va kapital bozoriga kirib kelayotgan emissiyalar hamda investor faolligi uchun qulay muhit yaratdi. Shu bilan birga, markaziy depozitar tizimida hisobga olingan investorlar bazasi kengaydi. 2025-01-01 holatiga ko'ra, "yagona depozitorlar bazasi"da ro'yxatdan o'tganlar soni 835 771 nafarga yetdi. Investitsion vositachilar mijozlari depo-hisoblarida par qiymatda hisobga olingan qimmatli qog'ozlar hajmi keskin oshib, aksiyalar bo'yicha 28 924,02 trln so'm, korporativ obligatsiyalar bo'yicha 1 688,68 trln so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkichlar savdo strategiyalarini amaliy joriy etish uchun zarur bo'lgan likvidlik va ishtirokchilar sonining barqaror oshib borayotganini namoyish etadi.

Bundan tashqari, xususiylashtirish va IPOlar oqimini tezlashtirishga qaratilgan tashabbuslar, jumladan, Milliy investitsiya fondi orqali yirik aktivlarni bozorga olib chiqish rejaları xalqaro investorlar e'tiborini kuchaytirmoqda hamda ichki birja mexanizmlarini chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – fond bozorida keng qo'llaniladigan savdo strategiyalarining (momentum, o'rtachaga qaytish, faktor-investitsiya, arbitraj va algoritmik yondashuvlar) nazariy asoslarini hamda ularni mahalliy bozor sharoitida bosqichma-bosqich joriy etish yo'nalishlarini ilmiy asosda tadqiq etishdir. Shu nuqtayi nazardan, bozor mikrostrukturasi, likvidlik va tranzaksiya xarajatlari, ma'lumot assimetriyasi, narx kashfiyoti, tartibga solish talablari va investorlarga oid xulqiy omillar uyg'unligida strategiyalarning kutilgan rentabelligi va risk profili baholanadi.

Tadqiqotda klassik akademik adabiyotlar – samarali bozor gipotezasi (Fama), rentabellik anomalialari (Jegadeesh–Titman momentum effekti), ko'p faktorli modellar (Fama–French va keyingi kengaytmalar) – bilan bir qatorda, O'zbekiston kapital bozorining so'nggi statistik ko'rsatkichlari va institutsional islohotlari sintez qilinadi.

Amaliy qismda emissiya oqimi, investorlar soni, bozor sig'imi va savdo hajmlaridagi dinamikani inobatga olgan holda strategiyalarni implementatsiya qilish bo'yicha "yo'l xaritasi" taklif etiladi. Unda bosqichma-bosqich pilotlash, risklarni chegaralash, regulyator talablariga mos keluvchi ijro intizomi va texnik infratuzilma (order-routing, monitoring, backtesting va TCA) uchun minimal mezonlar ishlab chiqiladi.

Shu tariqa, maqola milliy kapital bozorida savdo strategiyalarini samarali qo'llashga oid ilmiy-amaliy asoslarni mustahkamlash, investorlarga amaliy ko'rsatmalar berish hamda regulyator va bozor infratuzilmasi ishtirokchilari uchun dalillarga tayangan tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Fond bozori strategiyalari bo'yicha ilmiy adabiyot, avvalo, samarali bozor gipotezasi (EMH) va unga nisbatan empirik qarama-qarshiliklarga tayangan holda shakllandi. Fama (1970) klassik sharhida bozor narxlari mavjud ma'lumotni "to'liq aks ettiradi" degan nazariy ramkani tizimli bayon etib, empirik sinovlarning uch darajali samaradorlik (zaif, o'rta, kuchli) tasnifini taklif etdi. Ushbu ramka keyingi strategiya tadqiqotlari uchun metodologik poydevor bo'lib xizmat qildi. Shu fonda kutilmagan darajada barqaror naqshlar aniqlandi: Jegadeesh va Titman (1993) qisqa–o'rta muddatlarda "g'oliblarni sotib olib, yutqazuvchilarni sotish" momentum strategiyasi ijobiy ortiqcha rentabellik keltirishini hujjatlashtirib, EMH uchun muhim chaqiriq bo'ldi.

Risk-asoslangan izohlar yo'nalishida Fama va French (1993) uch omilli model orqali o'rta rentabellikdagi o'zgarishni bozor, o'lcham (SMB) va qiymat (HML) omillari bilan tushuntirishni taklif qildi. Carhart (1997) bu tuzilmaga momentum omilini qo'shib, portfel natijalaridagi "qat'iylik"ning katta qismini aynan momentum bilan izohladi. So'nggi avlod modellarida esa Fama–French (2015) rentabellikni yanada yaxshiroq izohlash uchun foydalilik (profitability) va investitsiya omillarini qo'shdi. Shu bilan birga, Hou–Xue–Zhang (2015) "q-model" orqali investitsiya va foydalilikka tayanuvchi alternativ yondashuvni ilgari surib, ko'plab "anomaliya"larni yutib yuborishini ko'rsatdi. Parallel ravishda, Asness, Moskowitz va Pedersen (2013) "Value and Momentum Everywhere" ishida qiymat va momentum mukofotlari turli bozorlarda hamda aktiv sinflarida izchil kuzatilishini ko'rsatib, faktor strategiyalarining geografik va aktivlararo barqarorligini ta'kidladilar.

Strategiyalarning ijrosi va savdo samaradorligini tushuntirishda bozor mikrostrukturasi adabiyoti markaziy o'rin tutadi. Kyle (1985) modeli axborotga ega treyderlar, shovqinli savdo va market-meykerlar o'zaro ta'siri orqali narx kashfiyoti hamda "bozor chuqurligi"ni formalashtirdi. Roll (1984) va Glosten–Milgrom (1985) ishlari



bitim narxlarini ketma-ket kovariatsiyasi va asimmetrik axborot tufayli spread shakllanishini analitik ko'rsatdi. Hasbrouckning Empirical Market Microstructure monografiyasi savdo ma'lumotlariga (order-flow, qarama-qarshi kotirovkalar, tranzaksiya vaqt qatorlari) statistik usullarni qo'llab, narx kashfiyoti va xarajatlarni o'lchash metodlarini standartlashtirdi. Ijro adabiyotida Almgren–Chriss (1999–2000) modeli doimiy va vaqtinchalik bozor ta'siri hamda volatillik xavfini muvozanatlashtiruvchi optimal savdo trayektoriyasini taqdim etdi. Amaliy TCA va algoritmik ijro strategiyalarini tizimlashtirgan Kissell (2013) esa real sharoitda xarajatlarni kamaytirish va slippage'ni nazorat qilish bo'yicha qo'llanma sifatida qo'llaniladi.

Xulqiy moliya adabiyoti strategiyalar natijalariga psixologik va institutsional cheklovlar orqali izoh beradi. De Bondt va Thaler (1985) investorlarning haddan tashqari reaksiya berishi uzoq muddatli "o'rtachaga qaytish"ga olib kelishini ko'rsatdi. Barberis va Thaler (2002/2003) esa arbitraj cheklovlari va kognitiv og'ishlar (masalan, yangiliklarga kechikkan reaksiya, kategorizatsiya) strategik premiyalarning saqlanib qolishiga yordam berishini ta'kidladilar. Shleifer (2000)ning Inefficient Markets kitobi ushbu nuqtayi nazarni umumlashtirib, bozor nomukammalliklari va arbitraj chegaralari tufayli "anomaliya"larning yashovchanligini konseptual asoslab berdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot gibriz dizaynda olib borildi: miqdoriy qismda UZSE bo'yicha 2023–2025-yillar davrining kunlik va oylik narx hamda hajm ma'lumotlariga tayanib momentum (6–1/12–1), o'rtachaga qaytish (1–3 oy) va faktor-investitsiya (SMB, HML, RMW, CMA, MOM) strategiyalari konstruktsiya qilindi; sifat qismda reguliator hujjatlari, birja e'lonlari va emitentlarning ochiqlashlari tahlil qilindi. Namuna tanlashda listingdagi aksiyalar survivorship bias'ni oldini olgan holda kiritildi, "penny" diapazoni va minimal savdo kunlari bo'yicha filtrlar qo'llandi.

Backtest natijalarini real sharoitga yaqinlashtirish uchun kvotlangan spread, komissiya va bozor ta'siri hisobga olingan ijro (TCA) modeli, shuningdek savdo tezligi va sig'im (capacity) cheklovlari qo'llandi. Baholash jarayonida yilliklashtirilgan daromad, Sharpe/Sortino koeffitsiyentlari, Information ratio, maksimal drawdown va hit-ratio ko'rsatkichlari ishlatildi. Risk-sozlangan natijalarni baholash uchun Fama–French/Carhart omil regressiyalari hamda Fama–MacBeth yondashuvi qo'llanildi, statistik ishonchlilik esa Newey–West va White xatoliklari yordamida tekshirildi.

Mustahkamlik sinovlarida portfel kesimlari (decile/quintile) va parametrlar sezgirligi, shuningdek turli holding/formation oynalari solishtirildi. Etik va tartibga solish mosligi bo'yicha ma'lumotlardan foydalanish qoidalari, hisob-kitoblarning qayta tiklanishi (reproducibility) va audit jurnali yuritildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil 2023–2025-yillardagi rasmiy ochiq ma'lumotlar asosida olib borildi va, avvalo, likvidlik hamda ishtirokchilar bazasidagi o'sish savdo strategiyalarini amaliy joriy etish uchun "oyna davri"ni ochib bergani aniqlandi. Birja darajasida 2024-yil yakunlari bo'yicha umumiy savdo hajmi 21,95 trln so'mga yetib, 2023-yilga nisbatan 16,56 trln so'mga yoki 632,0 % ga oshdi. Bu sakrash strategiyalarni kalibrlashda tranzaksiya xarajatlari ulushini pasaytiruvchi asosiy omil bo'lib chiqdi. 2024-yilning birinchi choragi kesimida 87 emitent aksiyalari bo'yicha 133,6 ming bitim va 171,89 mlrd so'mlik savdo qayd etilgani likvidlikning mavsumiy va segmentlararo farqlanishi saqlanib qolayotganini ko'rsatdi. Demak, indikatorlarni (momentum, qiymat, sifat va boshqalar) qurishda kvartal yoki oylik agregatsiya bilan ishlash barqarorroq natija beradi.

2025-yilda o'sish dinamikasi tezlashdi: 2025-yil iyunida umumiy savdo hajmi 4 trln so'mdan oshib, faqat aksiyalar bo'yicha 3,34 trln so'mni tashkil etdi. Bitimlarning mutlaq ko'pchiligi FoP (Free of Payment) platformasida bajarildi. O'rtacha kunlik aylanma 166,9 mlrd so'm, o'rtacha bitim hajmi esa 30 mln so'm atrofida shakllandi. Bu mikrostruktur xususiyat shuni anglatadiki, narx kashfiyoti asosan order-book segmentida yuz bermoqda, FoP esa yirik blok tranzaksiyalar oqimini ko'rsatmoqda. Shu bois yuqori aylanuvchan momentum strategiyalari ijrosida "ta'sir xarajati"ni past darajada ushlash uchun limit-buyurtmalar va bosqichli ijro (slice) yondashuvlari tavsiya etiladi.

2025-yil aprel holatiga aksiyalar bozorining umumiy kapitallashuvi 242,58 trln so'mga teng bo'lib, erkin muomaladagi (free float) kapitallashuv 3,96 trln so'mni tashkil etdi. May oyining oxirida kapitallashuv 248,31 trln so'mga yetdi va listingda 130 dan ortiq aksiya mavjudligi bozor sig'imining kengayib borayotganini tasdiqladi. Mazkur ko'rsatkichlar faktor-investitsiya (qiymat, o'sish, o'lcham, sifat) strategiyalari uchun "kesimlar"ni yetarli darajada to'ldirish imkonini beradi. Biroq free float pastligi tufayli sig'im (capacity) cheklovi saqlanmoqda va portfel vaznlarini konsentratsiya limitlari bilan boshqarish zarur.

Ishtirokchilar bazasi nuqtayi nazardan, Markaziy depozitariy hisoboti 2025-01-01 holatiga investitsiya vositachilari mijozlari depo-hisoblarida mablag'i mavjud deponentlar soni 712,02 ming nafarga yetganini ko'rsatdi. Ushbu kengayish chakana investorlar segmentining faollashganini bildiradi va xulqiy-behavioral effektlarning (yangiliklarga kechikkan reaksiya, ortiqcha ishonch) momentum hamda o'rtachaga qaytish signallarida saqlanib qolish ehtimolini oshiradi.



Infratuzilmaviy jihatdan, 2024-yil may oyida Markaziy depozitariyning Markaziy bank to'lov tizimiga bevosita ulanishi qisqa muddatli hisob-kitoblarni tezlashtirdi. Bu ijro xavfi va settlement xatarlarining pasayishiga xizmat qilib, tranzaksiya narxini tushiruvchi tarkibiy omil bo'ldi. Demak, ijro samaradorligining yuksalishi strategiyalar bo'yicha backtest natijalarini real savdo sharoitlariga yaqinlashtirmoqda va TCA (transaction cost analysis) modellari uchun parametrlarni konservativdan mo'tadillashtirish imkonini bermoqda.

Strategiyalar kesimida olingan natijalar quyidagicha talqin qilinadi. Birinchidan, oylik agregatsiya asosidagi 12–1 va 6–1 momentum spesifikatsiyalari past-turnover ijro rejimida (limit-buyurtmalar, bosqichli ijro, “noon auction” yoki savdo seansining “chuqur” davrlarida savdo qilish) tranzaksiya xarajatlariga nisbatan sezgirlikni kamaytiradi. Shu bilan birga, likvidlikning bir nechta yirik emitentlarda jamlangani “konsentratsiya riski”ni oshirgani uchun risk-byudjetda “emitent per-name cap” limitlari ishlatildi.

Ikkinchidan, qiymat (HML) va sifat (RMW) omillarida signallarni emitentlarning ochiq moliyaviy hisobotlaridan (openinfo.uz) konsistent tarzda yig'ish mumkin bo'ldi. Bu yondashuv “balansga suyanagan” strategiyalarni ma'lumot sifatiga bog'liq xatolardan himoyalash uchun outlier-filtrlash (winsorization) va kechikish (reporting lag) tuzatishlari bilan qo'llanganda barqarorroq ko'rinish berdi.

Uchinchidan, o'rtachaga qaytish signallari qisqa ufqda (1–3 oy) FoP blok tranzaksiyalari kuchaygan oynalarda zaiflashadi, chunki narx kashfiyoti mexanizmi “lit order-book”da shakllanadi. Shu bois reversiya strategiyalarida likvidlik proksilari (spred, “depth”, savdo soni) bo'yicha adaptiv filtrlash zarur.

To'rtinchidan, 2025-yilda davlat aktivlarining bozorga chiqarilishi va xususiyashtirishning tezlashishi kutilayotgan emissiya oqimini kuchaytiradi. Bu esa faktor signallari uchun “namuna kengligi”ni oshirib, momentum strategiyalarining sektorlararo rotatsiya imkonini kengaytiradi. Biroq dastlabki oylarida IPO va SPO effektlari (post-listing drift, lock-up davrlari) tufayli ehtiyotkor kalibrlash talab etadi.

Yakunda, bozor kattalashuvi (kapitallashuv 242–248 trln so'm diapazonida), savdo hajmlarining 2024-yilda keskin o'sishi va 2025-yilning ayrim oylarida rekord darajalar, shuningdek, depozitar va hisob-kitob infratuzilmasining kuchayishi savdo strategiyalarini amaliy joriy etish uchun “likvidlik oynasi”ni ochdi. Ammo free float kichik ulushi, FoP segmenti ustunligi va emitentlar bo'yicha konsentratsiya yuqoriligi sababli ijro intizomi, tranzaksiya xarajatlarini boshqarish va portfel sig'imi cheklovlarini strategiyaning real rentabelligini belgilovchi asosiy omillar bo'lib qolmoqda. Shu sababli, mahalliy sharoitda past-turnover momentum (12–1), “qiymat–sifat” kombinatsiyasi va qat'iy TCA rejimi eng qulay start nuqtasi sifatida tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2023–2025-yillar davri tahlili shuni ko'rsatdiki, bozor sig'imi va savdo hajmlarining sezilarli o'sishi, hisob-kitob va depozitar infratuzilmasining yaxshilanishi hamda chakana investorlar bazasining kengayishi fond bozorida savdo strategiyalarini amaliy joriy etish uchun “likvidlik oynasi”ni ochdi. Biroq erkin muomaladagi aksiyalar ulushining pastligi, bitimlar konsentratsiyasi va FoP segmenti ustunligi mikrostruktur cheklovlarini kuchaytirib, ijro intizomi, tranzaksiya xarajatlarini boshqarish va portfel sig'imi (capacity) limitlarini strategiya natijalarining asosiy determinantiga aylantirmoqda.

Empirik natijalar mahalliy sharoitda past-turnover momentum (12–1) hamda “qiymat–sifat” (HML–RMW) kombinatsiyalarining barqarorroq risk-rentabellik profilini ko'rsatdi. Qisqa ufqli o'rtachaga qaytish yondashuvlari esa likvidlik notekisligiga sezgir bo'lib qoldi. Shu sababli, signal qurishda moliyaviy hisobotlar sifati, reporting-lag tuzatishlari va outlier filtrlari majburiy hisoblanadi.

Strategiyalarni keng ko'lamda joriy etish bosqichma-bosqich pilotlash, qat'iy TCA (spred, bozor ta'siri, komissiyalar), per-name cap va sektor limitlari, risk-byudjet va monitoring (drawdown, IR, alpha t-stat) bilan birga amalga oshirilishi lozim. Parallel ravishda free floatni oshirish, market-meykerlikni rag'batlantirish va ochiqlik standartlarini kuchaytirish faktor va momentum signallarining ishonchligini hamda ijro samaradorligini oshiradi.

Shu tariqa, ilmiy adabiyotdagi omil modellari va xulqiy effektlar bo'yicha dalillar mahalliy mikrostruktur sharoitlari bilan uyg'unlashtirilganda, barqaror alfa yaratishning real imkoniyati aynan ijro intizomi va institutsional islohotlar sur'ati bilan belgilanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fama, E. F. (1970). Efficient Capital Markets: A Review of Theory and Empirical Work. The Journal of Finance, 25(2), 383–417.
2. Jegadeesh, N., & Titman, S. (1993). Returns to Buying Winners and Selling Losers: Implications for Stock Market Efficiency. The Journal of Finance, 48(1), 65–91.
3. Fama, E. F., & French, K. R. (1993). Common risk factors in the returns on stocks and bonds. Journal of Financial Economics, 33(1), 3–56.
4. Carhart, M. M. (1997). On Persistence in Mutual Fund Performance. The Journal of Finance, 52(1), 57–82.
5. Fama, E. F., & French, K. R. (2015). A five-factor asset pricing model. Journal of Financial Economics, 116(1), 1–22.



6. Asness, C. S., Moskowitz, T. J., & Pedersen, L. H. (2013). Value and Momentum Everywhere. *The Journal of Finance*, 68(3), 929–985.
7. Kyle, A. S. (1985). Continuous Auctions and Insider Trading. *Econometrica*, 53(6), 1315–1335.
8. Glosten, L. R., & Milgrom, P. R. (1985). Bid, Ask and Transaction Prices in a Specialist Market with Heterogeneously Informed Traders. *Journal of Financial Economics*, 14(1), 71–100.
9. Hasbrouck, J. (2007). *Empirical Market Microstructure: The Institutions, Economics, and Econometrics of Securities Trading*. Oxford University Press.
10. Almgren, R., & Chriss, N. (2001). Optimal execution of portfolio transactions. *Journal of Risk*, 3(2), 5–40.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
